

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI TALABA VA O'QUVCHILARNING  
MA`NAVIY YUKSALISHIGA KO'MAKLASHISH MARKAZI**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR SIYOSATI VA SPORT VAZIRLIGI  
YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI TOSHKENT SHAHAR BOSHQARMASI**

**O'ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI  
TOSHKENT SHAHAR HUDUDIY KENGASHI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI HUZURIDAGI  
O'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI MASALALARI BO'YICHA  
MUVOFIQLASHTIRUVCHI-METODIK MARKAZ**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI INVESTITSIYALAR, SAVDO VA SANOAT  
VAZIRLIGI O'ZBEKISTON TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA SOLISH AGENTLIGI  
RESPUBLIKA YOSH OLIMLAR KENGASHI**

## **“SIFATLI TA'LIM – TARAQQIYOT POYDEVORI”**

**mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy  
konferensiya to'plami**

*2023-yil 20-aprel*

*"Sifatli ta'lim – taraqqiyot poydevori" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to'plami // Toshkent, 2023-yil 20-aprel. – 1326 b.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-avgustdagи "Yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4433-sonli Qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash, 2023-yil "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Talaba va o'quvchilarning ma'naviy yuksalishiga ko'maklashish markazi, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi Yoshlar ishlari agentligi Toshkent shahar boshqarmasi, O'zbekiston Yoshlar ittifoqi Toshkent shahar hududiy Kengashi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz, O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar, savdo va sanoat vazirligi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi, Respublika Yosh olimlar Kengashi hamkorligida "*Sifatli ta'lim – taraqqiyot poydevori*" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi.

Mazkur konferensiya to'plamida uch yuz ellikdan ortiq maqolalar jamlangan.

**Tahrir hay'ati:**

**Olima Ergasheva** – biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;  
**Qodirjon Abdurahimov** – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;  
**Mansur Aytbayev** – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;  
**Jamshid Yusubov** – siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;  
**Kamoliddin Jabborov** – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;  
**Serobjon Yuldashev** - falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;  
**Baxtiyor Mamasoliyev** – fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Surojbek Sultonov** – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;  
**Jaloliddin Yusubov** – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;  
**Umid Menglikulov** – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);  
**Rasul Ro'zmetov** – katta o'qituvchi;  
**Bekzod Ernazarov** – katta o'qituvchi;  
**Sarvar Jumayev** – o'qituvchi.

**Tashkiliy qo'mita kotibi:**

**Ulug'bek To'xtayev** – O'zbekiston Milliy universiteti Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti yetakchisi

*Maqolalarning to'g'ri va aniqligiga mualliflar mas'uldir.*

© Sifatli ta'lim – taraqqiyot poydevori

7. Xakimova M.F., Turabekov F.S., Kayumova M.Sh. Ta'lim va o'rganish nazariyasi. – T.: Innovatsiya vazirligi nashriyoti. 2021. -151 bet.
8. Mamajanov I. Iqtisodiy ta'lilda innovatsion va axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanishning dolzARB masalalari. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. Ilmiy elektron jurnal. 2020. - №4. -B. 230-242.
9. Mamajanov I. Ta'lilda innovatsiya va innovatsion faoliyat. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. Ilmiy elektron jurnal. 2020. №6. – B. 119-124. <http://iqtisodiyot.tsue.uz/>
10. Xakimova M. Bizga zamonaviy kadrlar kerak //Архив научных исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 1.

## **TURLI ETIOLOGIYALI GEMOBILIYANING SAMARALI DIAGNOSTIKASI VA DAVOLASHGA ZAMONAVIY YONDASHUV**

***Fayziyev Sarvar Ismoil o'gli***

*Toshkent tibbiyot akademiyasi 1-son Fakultet va gospital  
jarrohlik kafedrasi assistenti.*

***Radjapov Muhammad Alijonovich***

*Toshkent tibbiyot akademiyasi, 1-son Davolash fakulteti 5-bosqich talabasi*

***Tursunboyev Muxammadorif Oybek og'li***

*Toshkent tibbiyot akademiyasi, 1-son Davolash fakulteti 5-bosqich talabasi*

**Gemobiliya** yuqori oshqozon-ichak tizimidan qon ketishining kamdan-kam uchraydigan shakli bo'lib, o't yo'llari tizimidan qon ketishini ifodalaydi. Gepatobiliar tizim jarrohlik amaliyotlari keyin yatrogenik asoratlar gemobiliyaga olib keluvchi eng ko'p uchraydigan sababdir. Tez uchraydigan xirurgik patologiyalar orasida yuqori ovqat hazm qilish traktidan qon ketishi eng ko'p uchrashini hisobga olganda, gemobiliyaning ulardan farqli jihatlari o'rganib chiqishni talab qiladi. Bu nozologik birlik barcha oshqozon-ichak tizimidan qon ketishlarning 5-9 % ni tashkil etadi.

**Kalit so'zlar:** gemobiliya, gepatobiliar tizim, yatrogeniya, angiografiya, selektiv embolizatsiya, xoledoxotomiya.

**Haemobilia** is a rare form of bleeding from the upper gastrointestinal system and represents hemorrhages from the upper gastrointestinal system. Hepatobiliar system surgical procedures are then the most common cause of iatrogenic complications . Given that among common surgical pathologies, hemorrhages from a high digestive tract are the most common, requiring an

analysis of the different aspects of haemobilia from them. This nosologic unit accounts for 5-9% of bleeding from all gastrointestinal systems

**Key words:** haemobilia, hepatobiliar system, iatrogenia, angiography, selective embolization, choledochotomy.

**Kirish.** Gemobiliyaning klassik namoyon bo'lishi "Quincke triadasi" bilan shakllanadi: sariqlik, qorinning o'ng yuqori kvadrantida og'riq, oshqozon-ichak tizimi yuqori qismidan qon ketish simptomlari. Kasallik patogenezining kechishi uning qanday sabab bilan rivojlanganiga bog'liq. Ya'ni, quyidagi klinik variantlar bo'lishi mumkin: qon o't pufagi ichida ivib qolishi natijasida, gemobilia o't pufagi istisqosi klinikasi bilan kichadi; qon laxtasi umumiy o't yo'llariga turib qolishi natijasida bemorda obturatsion sariqlik klinikasi namoyon bo'ladi; qon ivimasdan umumiy o't yo'li orqali o'n ikki barmoqli ichakka tushishi natijasida oshqozon-ichak tizimidan qon ketishi klinikasi bilan yuzaga keladi. Yuqorida bayon qilingan holatlar bemorga tashxis qo'yishni qiyinlashtiradi, noto'g'ri tashxis qo'yilishi natijasida bemor ahvoli kundan kunga og'irlashib boradi va o'limiga ham sabab bo'lishi mumkin.

**Dolzarbliги.** Gemobiliyaning klinik ko'rinishi o'zgaruvchanligi sababli, o'z vaqtida tashxis qo'yish jarrohdan ushbu holat uchun yuqori shubha indeksini saqlab turishi va instrumental tekshiruv natijalaridagi o'ziga xos xususiyatlarini bilishini talab qiladi. Qorin bo'shilig'ida og'riqlar va qon yo'qotish belgilari bo'lgan bemorda gepatobiliar aralashuv yoki neoplastik jarayonlarning har qanday tarixi gemobiliya belgilarini tekshirishni talab qilishi kerak va bu o'z-o'zidan cheklangan qon yo'qotishdan hayot uchun xavfli qon ketishgacha bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, u yatrogenik asoratlari (65%) tasodifiy travma (6%) yoki turli xil neoplastik(7%), yuqumli va yallig'lanish jarayonlari (7%), o't-tosh kasalliklari va uning asoratlari (5%) natijasida yuzaga keladi. O'z vaqtida tashxis qo'yish va aniq angiografik yoki endoskopik davolanishga yo'naltirish kasallanish va o'limni minimallashtirish uchun juda muhimdir.

**Tadqiqot materiallar va diagnostik usullar:** Ilmiy izlanish 2016-2022 yillardagi Toshkent tibbiyat akademiyasi Torakoabdominal va Shoshilinch jarrohlik bo'limlarida o'tkazildi. Tadqiqot davomida 54 ta bemorda gemobiliya aniqlandi. Shulardan 30 ta erkak (55,55%), 24 ta ayol (44,45) bo'lib bemorlarning o'rtacha yoshi 52 yoshni tashkil qiladi. Bemorlarga tashxis qo'yishda: ultratovush tekshiruvi 50 ta bemorda "Mindray DP-50" (Xitoy, 2014), MSKT tekshiruvi 45 ta bemorda NeuViz 64i (New Soft), MRT tekshiruvi 18 ta bemorda "Siemens" MAGNETOM Skyra, EFGDS amaliyoti 8 ta bemorda SanoScape Full HD 500 apparatlaridan foydalanildi. Bemor ahvoldidan kelib chiqqan holda konservativ davolash, shoshilinch va rejali ravishda jarrohlik amaliyoti bajarildi.

**Davolash :** Gemobiliyaning davolash algoritmi kasallikning etiologik faktoriga va klinik kechishiga ko'ra quyidagicha: medikamentoz gemostatik terapiya; jigar ichki qon tomirlari zararlanganda qon ketish sohasini ochish, qon ketayotgan tomirni topish, bog'lash, agar bog'lashni iloji bo'lmasa

elektrokoagulyatsi yo'li bilan to'xtatish va sohaga tampon qo'yish. Umumiy o't yo'lida tromb bo'lsa: xoledoxotomiya va xoledoxni drenajlash amaliyoti bajariladi. Shu bilan birga, endovaskulyar davo ( kimyoviy embolizatsiya, radioembolizatsiya, ballon embolizatsiya, spiral yordamida embolizatsiya ) qo'llaniladi.

**Natija:** Bemorlarda etiologik xilma-xillik quyidagicha: bemorlarning 20 tasida (37%) travma natijasida, 16 tasida (29,6%) yatrogeniya , 6 tasida (11,11%) neoplastik jarayon natijasida , 5 tasida (9,2%) vaskulyar, 1 tasida (1,8%) o't tosh kasalligi va 6 tasida (11,11%) boshqa patologiya natijasida kelib chiqqan. Bemorlarda klinik xilma-xillik ham turli variantlarda bo'lib ulardan: qon o't pufagi ichida ivib qolishi natijasida, gemobilia o't pufagi istisqosi klinikasi bilan kechishi 20,37% holatda, qon laxtasi umumiyligi o't yo'llariga turib qolishi natijasida bemorda obturatsion sariqlik klinikasi 33,3% hollatda, qon ivimasdan xoledox orqali o'n ikki barmoqli ichakka tushishi natijasida oshqozon-ichak tizimidan qon ketishi klinikasi 29,6% holatda qayd etildi. Davolashda: 65% holarda jigarnng selektiv embolizatsiyasi, 19% holatda laparotomiya, gematomani ochish va qon tomirni bog'lash amaliyoti, 11% holatda aparotomiya, xoledoxotomiya, xoledoxdan trombni olish tashlash amaliyoti va 7% holatda medikamentoz gemostatik terapiya qo'llanildi.

**Xulosa:** Noma'lum etiologiyali OITdan qon ketishlarining sababi Gemobiliya bo'lishi mumkinligini inobatga olish, jigar operatsiyalarida maksimal gemo- va biliostazga erishish, yatrogeniya darajasini maksimal kamaytirish, qorinning yopiq jarohatlari bilan shikoyat qilgan bemorlar dinamikasida ultratovush tekshiruvini amalga oshirish muhim ahamiyat kab etadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rani Berry, James Han, Mohit Girotra and James H. Tabibian. Hemobilia: Perspective and Role of the Advanced Endoscopist.// Gastroenterology Research and Practice. Volume 2018, Article ID 3670739, 12 page
2. Ahmad Parvinian, MD Joel G. Fletcher, MD Andrew C. Storm, MD Sudhakar K. Venkatesh, MD Jeff L. Fidler, MD Ashish R. Khandelwal, MD.// Challenges in Diagnosis and Management of Hemobilia. RadioGraphics 2021; 41:802–813
3. José D. Cardona , Oscar M. Rivero , Renzo Pinto , Camilo A. Barragán , David F. Torre.//Endovascular and Endoscopic Treatment of Hemobilia: A Report of Two Cases. 2022 Cardona et al. Cureus 14(8): e28383. DOI 10.7759/cureus.28383
4. Chalasani N., Clark W.S., Martin L.G., Kamean J., Khan M.A., Patel N.H., Boyer T.D. Determinants of mortality in patients with advanced cirrhosis after transjugular intrahepatic portosystemic shunting // Gastroenterology. 2000. V. 118. № 1. P. 138–144.
5. Obi S., Shiina S., Hamamura K., Imamura M., Teretani T., Sato S., Komatsu Y., Kawabe T., Omata M. Early detection of hemobilia associated with percutaneous

ethanol injection for hepatocellular carcinoma // Eur. J. Gastroenterol. hepatol. 200. V. 12. № 3. P. 285-290.

6. Riemann J.F., Maier M., Schilling D., Kohler B. Benign bile duct stenosis conservative management as long as possible? // Schweiz. Rundsch. Med. Prax. 1994. V. 83. № 32. P. 883-885.

7. Sandlom P. Hemobilia // Surg. Clin. N. Amer. 1973. V. 53. № 8. P. 1191-1195.

## **SIFATLI TALIM – KELAJAK POYDEVORI**

*Fayziyev Sayidjahon Jamshid o'gli,  
Botirov Xondamir Nodir o'g'li*

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya litseyi Aniq fan yo'nalishi 2-kurs o'quvchisi*

*Valiyeva Dilfuza Usmonovna (ilmiy rahbar)*

Mamlakatimizning Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida ta'kidlanganidek: "Ota-bobolarimiz qadimdan beba ho boylik bo'lmish ilmu-ma'rifikat, ta'lif va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan. "Yurtimizda ta'lif sohasida amalga oshirilayotgan yangiliklarning asosiy maqsadi insonning barkamol rivojlanishini, farovonligini ta'minlashdan iborat. Shuning uchun ta'lif sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayoni ta'lif tizimining asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Mamlakatimizda mustaqillik sharofati bilan yangilanish, rivojlanish davri boshlanib, ijtimoiy hayotimiz umumjahon andozalariga mos taraqqiyot yo'nalishlariga jadal sur'atlar bilan kirib bormoqda. Barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'lif sohasida ham ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda. Mustaqilligimizning ilk davridan boshlab yurtimizda yosh avlod tarbiyasiga jiddiy e'tibor berila boshlandi. Farzandlarimizni komil inson bo'lib shakllanishida, aqlan sog'lom, jismonan yetuk, hayotda o'z o'rnini topishida, el yurt koriga yaraydigan, el-yurt orasida izzat-hurmatga sazovor bo'lishda, ma'naviy munosabatlarni yo'lga qo'yishda oila asosiy o'rinni egallaydi. Xalqimizda bola boshidan degan naql bor. Maktabgacha ta'lif uzluksiz ta'lif tizimining boshlang'ich turi hisoblanadi. Maktabgacha ta'lif tizimi Respublikamizning ta'lif to'g'risidagi qarorlari asosida tashkil etilib, bolalarni har tamonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalash uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratadi. Maktabgacha tarbiya yoshi an'anaviy tarzda bog'cha yoshi deb yuritiladi. Ko'pchilik bolalar bu davrda maktabgacha ta'lif muassasalari hisoblangan bog'chalarga boradilar. Maktabgacha ta'lif muassasalarida bolalarimiz dastur talablari asosida maktabga tayyorgarlik bosqichini o'taydilar. Ta'lifning boshlang'ich bosqichida og'zaki nutqning